

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTON JANUBIY VILOYATLARI SHAHARLARIDA QURILISH VA OBODONLASHTIRISH ISHLARI: TARIXIY TAHLIL

Tursunov Anvar Saypullayevich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti,

tarix fanlari doktori (DSc).

avar061484@gmail.com

UDK: 325.111 (575.1) (091)

<https://orcid.org/0009-0009-3517-1305>

Annotatsiya: Mazkur maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekiston janubiy viloyatlari — xususan Surxondaryo va Qashqadaryo hududlari shaharlarida amalga oshirilgan qurilish va obodonlashtirish ishlari tarixiy jihatdan tahlil etiladi. Tadqiqotda shahar infratuzilmasining rivojlanishi, madaniyat va istirohat bog‘larining holati, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash, sanitariya-gigiyena tizimini takomillashtirish hamda yirik yubiley tadbirlariga tayyorgarlik jarayonlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Surxondaryo, Qashqadaryo, shaharsozlik, qurilish ishlari, obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish, infratuzilma, istirohat bog‘lari, urbanizatsiya.

Аннотация: В данной статье исторически анализируются строительные и благоустроительные работы, осуществлённые в годы независимости в городах южных областей Узбекистана, в частности в Сурхандарьинской и Кашкадарьинской областях. В исследовании освещаются вопросы развития городской инфраструктуры, состояния парков культуры и отдыха, обеспечения экологической безопасности, совершенствования санитарно-гигиенической системы, а также подготовка к крупным юбилейным мероприятиям.

Ключевые слова: Сурхандарья, Кашкадарья, градостроительство, строительные работы, благоустройство, озеленение, инфраструктура, парки отдыха, урбанизация.

Abstract: This article provides a historical analysis of construction and landscaping works carried out during the years of independence in the cities of the southern regions of Uzbekistan, particularly in Surkhandarya and Kashkadarya

regions. The study highlights the development of urban infrastructure, the condition of cultural and recreational parks, environmental safety measures, improvement of sanitation and hygiene systems, as well as preparations for major jubilee events.

Keywords: Surkhandarya, Kashkadarya, urban planning, construction works, landscaping, greening, infrastructure, recreational parks, urbanization.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Zamonaviy urbanizatsiya jarayonlarida shaharlarda obodonlashtirish, ko‘kalamlashtirish, ekologik xavfsiz, aqlli shaharni yaratish tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Aqlli shahar deganda turli infratuzilmalar – transport, aloqa, iqtisodiyot, savdo-sotiq va ishlab chiqarish, kommunal xizmatlar, sog‘liqni saqlash, sport, ta‘lim, xavfsizlik, obodonchilik uyg‘unlashgan makon tushuniladi. Binobarin, aqlli shaharlarda yashash uchun barcha qulayliklar yaratilgan bo‘ladi. Bunday natijaga erishish uchun shaharlarda tarixiylik, milliylik va zamonaviylikni uyg‘unlashtirish asosida keng ko‘lamli obodonchilikni amalga oshirish talab etiladi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). 1990-yillarning boshidagi iqtisodiy inqiroz oqibatida madaniyat va dam olish bog‘lari nochor ahvolga tushib qoldi. Termiz shahridagi Bobur bog‘i, Denov shahri, Jarqo‘rg‘on tumanlaridagi madaniyat va dam olish bog‘lari hududlarida mehnatkashlarning madaniy dam olishiga aloqasi yo‘q qurilishlar amalga oshirildi va bog‘larning yerlari egallab olindi. Angor tuman bog‘i mablag‘ topa olmagan oqibatida tugatildi[1]. Termiz

shahridagi “Do‘stlik” bog‘ining yo‘l yoqasi qurilish savdosi bilan shug‘ullanuvchi ishbilarmon kishilarga berilishi natijasida 2 qavatli do‘konlar paydo bo‘ldi va bog‘lar ko‘rki buzildi.

Xuddi shunday holat Qashqadaryo viloyatida ham sodir bo‘ldi. Viloyat shahar va tumanlarida mavjud 13 ta madaniyat va istirohat bog‘larining moddiy-texnika holati nochor ahvolga tushib qoldi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tilishi, narxlarning to‘xtovsiz o‘sib borishi tanglikni yanada kuchaytirib yubordi. Bog‘larda sohaga umuman aloqasi bo‘lmagan bir qancha umumiy ovqatlanish va maishiy xizmat shoxobchalari kichik korxonalar tashkil etilib, ulardan bog‘ hisobiga hech qanday mablag‘ tushmay qoldi. Bu o‘z navbatida bog‘larning to‘liq faoliyat ko‘rsatishiga xalaqit berdi.

Yuqoridagi noxush holatlarni oldini olish maqsadida 1993-yil 22-yanvarda Qashqadaryo viloyat hokimining X-18/1–sonli qarori[2] hamda 1994-yil 2-mayda Surxondaryo viloyat hokimining 97-F-sonli farmoyishi[3] qabul qilindi. Ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida madaniyat va istirohat bog‘lari hududida joylashgan barcha korxonalar, tashkilotlar bog‘lar hisobiga ijara haqi to‘lashi yo‘lga qo‘yildi. Mahalliy byudjetdan obodonlashtirish uchun ajratiladigan mablag‘dan bir qismini madaniyat va istirohat bog‘larini obodonlashtirishga yo‘naltirildi.

Shaharlarda turli bayram tadbirlarining o‘tkazilishi keng ko‘lamli qurilish va obodonchilik ishlarini olib borishni talab qildi. Xususan, Qashqadaryo viloyat hokimining 1993-yil 8-oktyabrdagi X-352/10-son “Qarshi shahridagi yangi istirohat bog‘ini obodonlashtirish uchun o‘tkaziladigan tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, Qashqadaryo viloyatining 70 yilligi munosabati bilan Qarshi shahridagi yangi istirohat bog‘ini obodonlashtirish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqildi[4].

Shaharlardagi sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya etilishi turli yuqumli kasalliklarning oldini olish va ekologik xavfsizlikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Buning uchun mahallalarda maxsus chiqindixonalarni tashkil etish va undagi chiqindilarni o‘z vaqtida

maxsus poligonlarga olib ketish lozim bo‘ladi. Qarshi shahar chiqindi poligoni uchun ilgari ajratilgan 8,70 gektar yer maydoni tozalik va atrof-muhitni himoya qilish talablariga javob bermaganligi tufayli oldingi yerdan foydalanuvchi “Chorvador” jamoa shirkat xo‘jaligiga belgilangan maqsadda foydalanish uchun qaytarildi[5]. Bu masala viloyat hokimligi tomonidan o‘rganildi va 1995-yil 27-yanvarda Qarshi shahar kommunal foydalanish boshqarmasiga Qarshi shahar chiqindixonasini qurish uchun Chorvador jamoa –shirkat xo‘jaligi hududidan jami 46,95 gektar qishloq xo‘jaligi uchun yaroqsiz yer maydoni ajratildi[6].

1995-yilda Surxondaryo viloyatida mahalliy byudjet hisobidan 22,25 mln so‘m miqdoridagi mablag‘ ajratilib, quyidagi qurilishlar amalga oshirildi:

- 1.Termiz shahridagi yuqori chastotali Termiz –Salavat-Aeroport aloqa liniyasi;
- 2.Termiz shahar tennis korti;
- 3.Termiz shahar 4-mikrorayonda yangi bozor qurilishi;
4. Viloyat avtomobil nazorati binosi;
- 5.Termiz tumani Uchqizil mavzesidagi sanatoriya;
6. Qiziriq tuman markazida gorizental yopiq drenaj;
- 7.Termiz shahridagi 3 va 13-sonli maktablarda rekonstruksiya va obodonlashtirish ishlari,
8. Viloyat IIB binosini ta‘mirlash ishlari;
- 9.Oltinsoy tuman xalq sudi binosini qurilishi[7].

Ushbu imoratlarning qurilishi obodonlashtirish ishlari bilan qo‘shib olib borildi. Qurilish tugagan joylarda daraxt ko‘chatlarini va mavsumiy gullarni ekish amalga oshirildi. Yo‘llar tekislanib, ustiga asfalt yotqizildi.

Shahrisabz shahrining kengayishi inobatga olinib, Qashqadaryo viloyat hokimining 1998-yil 28-dekabrdagi X-458 v/12-sonli qarori bilan Shahrisabz kommunal foydalanish boshqarmasiga shahar va tuman tashkilotlari, korxonalari va aholisidan chiqadigan qattiq maishiy chiqindixonasini loyihalashtirish uchun A.Navoiy nomli jamoa xo‘jaligi

hududidan 2,5 gektar sug'oriladigan yer maydoni ajratildi[8].

Respublika janubiy shaharlaridagi obodonlashtirish ishlarining kuchayishida umumdavlat va xalqaro miqyosda o'tkazilgan tadbirlar va yubiley tantanalari kuchli turtki berdi. Ulardan "Alpomish" dostoni yaratilganligining 1000 yilligi, Termizning 2500 yillik, Shahrisabz va Qarshining 2700 yillik yubileylari muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 13-yanvarda qabul qilgan "Alpomish" dostoni yaratilganligining 1000 yilligini nishonlash to'g'risida"gi 17-sonli qaroriga asosan yubiley tantanalari Surxondaryo viloyatida o'tkazilishi belgilandi[9]. Ushbu qaror shaharda keng ko'lamli qurilish-obodonchilik ishlarini boshlab berdi. Bir vaqtlar quruq harbiy inshootlari bilangina tanilgan Termizda zamonaviy va ulug'vor inshootlar, yangi o'quv yurtlari, dam olish va madaniyat muassasalari, sport markazlari, maishiy xizmat ko'rsatish binolari, ko'rkam bozorlar qurildi. Termiz soliq inspeksiyasining yangi binosi, Surxondaryo viloyat biznes markazi qurilib ishga tushirildi. 3 gektarlik maydonda milliy va zamonaviy me'morlik an'analari asosida shahar markaziy bozori bunyod etildi. Uning qurilishiga 250 million so'm sarflandi. Ushbu mablag'ning 100 millionlik qismini viloyat ishbilarmonlari va homiy tashkilotlar ajratib bergan pullar tashkil etdi[10].

Bundan tashqari, Surxondaryo viloyat hokimligi oldida yangi "Oymoma" parki ishga tushirildi. Unda yosh bolalar dam olishlari uchun barcha qulayliklar yaratildi. Bog'da cho'milish havzalari, turli sirpanchiqlar, tir, oshxonalar, bufetlar, halinchaklar, avtodrom, billiardxona, foytun o'rnatildi[11].

Shahardagi "Do'stlik" istirohat bog'ida katta ko'l qurildi. Ko'l yaqinida ulug'vor "Alpomish" haykali o'rnatildi. Bog'ning Hakim-Termiziy ko'chasi bo'ylab Alpomish kurash majmuasi, tennis korti va boshqa sport inshootlari bunyod etildi[12]. Bayram tadbirlari o'tishi uchun vaqtinchalik amfiteatr qurildi.

Garchi shaharda ko'plab obodonchilik ishlari amalga oshirilgan bo'lsada, bu yetarli emas edi. Termizni xalqaro miqyosdagi

tadbirlarga tayyorlash uchun keng ko'lamli qurilish-obodonchilik ishlarini bajarish zarur edi. Bularni amalga oshirish ko'p vaqt va juda katta mablag'ni talab qilar edi. Keyingi tadbirlarni o'tkazishda mana shu kamchiliklar inobatga olindi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasidan 1999-yil 27-dekabrda qabul qilingan "Termiz shahrining 2500 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi 545-sonli qarorida 2000-2001 yillarda Termizda obodonchilik ishlari ko'lamini yanada oshirish, aholini ichimlik suv va tabiiy gaz bilan ta'minlashni yaxshilash, transport, aloqa, tibbiy xizmat va madaniy-maishiy tarmoqlarni rivojlantirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqish vazifasi belgilandi[13].

Albatta bayram tadbirlariga tayyorgarlik ko'rilishi juda katta mablag'ni talab etar edi. Shu bois 2000-yil 29-may kuni Surxondaryo viloyati Hokimining 624-sonli qarori bilan "Termiz shahrining 2500 yillik yubileyi" xayriya pul-buyum lotereyasi tashkil etildi. Unga asosan qiymati 1000 so'm bo'lgan lotereya biletlari viloyatdagi barcha davlat va nodavlat tashkilotlari xodimlariga tarqatildi. Xususan, viloyat sog'liqni saqlash tizimida ishlovchi 24831 nafar xodimiga 30000 dona lotereya berildi. Uni sotishdan kelib tushgan pullar "Termiz 2500 yilligi" jamg'armasi hisob raqamiga o'tkazildi[14].

Bajarilgan ishlar natijasida qator sport inshootlari va boshqa maishiy xizmat obyektlari ishga tushirildi. Istirohat bog'larida beton o'rniga Sherobod tumanining tog'li hududlaridan qizil tuproq olib kelinib to'shaldi. Bunda O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimovning Qarshi shahrida olib borilgan betonlashtirish amaliyoti qattiq tanqid ostiga olinganligi[15] hisobga olindi.

2000-yilda yubileyga tayyorgarlik ishlari olib borilishi natijasida moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan qariyb 22 mlrd so'mlik mablag' o'zlashtirildi. Termiz shahrida "Tez tibbiy yordam markazi" ishga tushirildi. Alpomish, Istiqlol, At-Termiziy maydonlari to'liq rekonstruksiya qilindi. A.Navoiy va Z.M.Bobur nomidagi istirohat bog'larini ta'mirlash tugallandi. 10147 m² savdo

inshootlari, 3388 o‘rinli umumiy ovqatlanish korxonalari, 83 ta maishiy xizmat ko‘rsatish nuqtalari ishga tushirildi[16]. Kommunal xo‘jaligi bo‘yicha obodonchilik xarajatlari uchun 2000-yilda 81,3 mln so‘m, 2001-yilda 292,9 mln so‘m o‘tkazildi. Shu jumladan, Termiz shahrini obodonlashtirishga 2000 yilda 32,7 mln so‘m rejalashtirilgan bo‘lsa, 2001-yil 100 mln so‘m ajratildi[17]. Ko‘cha yoqasida joylashgan barcha imoratlarining fasad qismi bir xil (ko‘k va yashil) tusda bo‘yaladi.

Biroq, Termiz shahrida qurilishi bitmagan obyektlar soni 2001-yilda 2000- yilga nisbatan 2 baravar oshdi. Qurilish tashkilotlarining yarmida rentabellik darajasi 1-4 foizni tashkil etdi. Debitorlik va kreditorlik qarzlari 35-40 foizga ko‘paydi. Ko‘pgina qurilish obyektlarida o‘tkazilgan tenderlarida faqat bittadan qurilish tashkiloti qatnashganligi ishning sifatiga jiddiy ta‘sir qildi[18]. Buning oqibatida 2001-yil kuzida rejalashtirilgan yubiley tadbirlari 2002-yilning 2-aprelida o‘tkazildi.

Shahrisabz shahri asos solinganligining 2700 yilligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2002-yil 29-mart kuni “Shahrisabz shahrining 2700 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish to‘g‘risida”gi 102-son qarorini qabul qildi. Qarorga asosan Shahrisabz shahrida 1200 o‘rinli yig‘ma amfiteatr qurish, temir yo‘l bekati binosi, “Shahrisabz” mehmonxonasi, Koba karvonsaroyini, markaziy bozorni zamon talablari asosida ta‘mirlash, Amir Temur maydonini obodonlashtirish va u yerda bolalar uchun dam olish bog‘i barpo etish, avtoshohbekat binosini ta‘mirlash va uning atrofida obodonchilik ishlarini amalga oshirish, shaharning tarixiy qismidagi asosiy yo‘lning ikki chetidagi binolar fasadlarini ta‘mirlash, shahar markaziga eltuvchi yo‘lni kengaytirish rejalashtirildi. Bu ishlarni bajarish uchun 2960 mln so‘m ajratildi[19].

2003-yil boshida Qashqadaryo viloyatida obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish, sanitar-tozalash ishlarini bajarishga ixtisoslashgan 15 ta kommunal xizmat ko‘rsatish korxonasi, 2 ta sanitar tozalash avtokorxonasi faoliyat ko‘rsatdi. Ushbu korxonalarining faoliyatidagi asosiy muammolardan biri ulardagi ishlab chiqarish

asosiy fondlarining, avtotransport va boshqa texnik vositalarning eskirish darajasi yuqoriligi (72 foiz) bo‘lib, obodonlashtirish ishlarini amalga oshirishda zamonaviy texnik vositalar bilan foydalanilmayotganligi sababli ishlar va xizmatlar tannarxini oshib ketishiga sabab bo‘ldi. Shunga qaramay, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari 2003-yil 1-choragida viloyat bo‘yicha 69,2 mln so‘mlik obodonchilik ishlarini olib bordilar. Jumladan, 66897 tup manzarali daraxt, 9632 tup mevali, 15000 tup tomirli terak, jami 76,5 ming tup daraxt ekildi[20].

Qarshi shahrining 2700 yillik yubileyi oldidan obodonchilik ishlarini yanada kengaytirish masalasini ijobiy hal qilish maqsadida Qarshi shahar hokimining 2004-yil 23-sentyabrdagi X-634/9-sonli qarori bilan Viloyat hududiy kommunal foydalanish birlashmasi tasarrufidagi “So‘lim diyor” ko‘kalamzorlashtirish korxonasiga gul va ko‘chatlar yetishtirish uchun shahar hududidagi Qarshi-Nishon yo‘li chap tomonida joylashgan 20 gektar sug‘oriladigan yer maydoni 30 yil muddatga berildi[21].

2006-yil mart oyida Qarshi shahri ko‘chalari, jumladan, O‘zbekiston, Nasaf, Jayxun, Amir Temur nomli ko‘chalar kengaytirildi va rekonstruksiya qilindi. Amalga oshirilgan ishlar natijasida O‘zbekiston ko‘chasining Amir Temur ko‘chasi kesishmasidan Qashqadaryo ko‘prigigacha bo‘lgan qismida 21 ta savdo obyekti va birinchi navbatda 30 ta uy (50 oila va 175 kishi), ikkinchi navbatdagi 75 ta uy (97 ta oila, 311 bosh) Nasaf ko‘chasining O‘zbekiston ko‘chasi chorrahasidan B.Sherqulov ko‘chasi chorrahasigacha bo‘lgan qismidagi to‘rtta savdo obyekti va 9 ta turar-joy (12 oila, 52 kishi), Odina masjidi atrofida 23 ta uy (36 oila va 125 kishi) buzishga tushirildi. Ularning o‘rniga zamonaviy shaharsozlik talablariga javob beruvchi obyektlar qurildi. Shuningdek, uyi buzilgan aholi turar-joy qurishi uchun Qarshi tumani hududidan 20 gektar yer maydoni ajratildi[22].

Qarshida obodonlashtirish ishlarini olib borish, manzarali daraxt va gul ko‘chatlarini parvarishlar maqsadida suv sachratgichlar va ichki sug‘orish tarmoqlari bilan ta‘minlangan

30,6 gektar yer maydoni Qarshi shahar obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish korxonasi balansiga berildi. Shuningdek, shahardagi yangi ishga tushirilgan 30 ta nasos stansiyalari, uzunligi 2,5 km bo'lgan magistral suv quvuri va 2,5 km ga teng Beshkent arig'i Qarshi shahar sug'orish tarmoqlari balansiga, Mustaqillik maydoni, Jayxun va Nasaf ko'chalari hamda shaharning tarixiy maydonidagi tungi yoritgichlar "Qashqadaryonur" mas'uliyati cheklangan jamiyati balansiga o'tkazildi[23]. Shahar markazidagi Mustaqillik maydonida Qashqadaryo xalqining timsoli bo'lgan yodgorlik qad ko'tardi. Bu monument "El-yurt tayanchi" deb ataldi[24].

Qarshi shahrida 2 yil ichida amalga oshirilgan qurilish-obodonchilik ishlariga qariyb 50 mlrd so'm sarflandi. Shaharning tarixiy qiyofasini tiklash maqsadida Registon maydoni, ko'pgina me'moriy obidalar tiklandi. Bundan tashqari, Mustaqillik maydoni, Markaziy va bolalar istirohat bog'i, amfiteatr maydoni, ko'plab turar-joylar, yangi maktablar, bozorlar, keng va ravon ko'chalar, olimpiya zaxiralari sport kolleji, yengil atletika manevi va yopiq suv sporti havzasi, 20000 o'ringa mo'ljallangan stadion bunyod etildi[25].

O'zbekiston janubidagi qadimgi shaharlar yubileylarining nishonlanishi ko'plab tarixiy obidalarni ta'mirlash va turistlarni jalb etish imkonini berdi. Janubiy viloyatlarda turizm sohasini jadal rivojlantirish, Qarshi va Shahrisabz shaharlarini turizm markazlariga aylantirish, sayohatchilarga xizmat ko'rsatish darajasini jahon talablariga mos ravishda tashkil etish maqsadida 2006 yilda quyidagi ishlar amalga oshirildi:

1. Qashqadaryo viloyat "Avtoyo'l" aksionerlik jamiyati tomonidan Qarshi shahrining tarixiy obidalari joylashgan Nasaf, Xonobod, Jayxun, O'zbekiston va Amir Temur bosh ko'chalarini rekonstruksiya qilishga 1500 million so'm sarflandi.

2. Xususiy ishbilarmonlar mablag'lari hisobiga Dehqonobod tumanining Oybek va Boshchorbog', Yakkabog', Shahrisabz va Kitob tumanlari hududida joylashgan so'lim maskanlarda zamonaviy kempinglar qurildi.

3. Homiylar mablag'lari hisobiga Qarshi-Buxoro trassasi yaqinida chet ellik sayohatchilar uchun tuyalarda sayr qilish va o'tovlar qurishga 3 mln so'm ajratildi[26].

2007-yil davomida Qashqadaryo viloyati shahar va tumanlar aholi yashash maskanlarida uy-joy fondini, ijtimoiy soha obyektlarini saqlash, kommunal xizmatlar sifatini oshirish, obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish ishlarini tashkillashtirish bo'yicha ko'rilgan chora tadbirlar natijasida quyidagi ishlar amalga oshirilgan:

1. Qarshi shahar va tumanlaridagi asosiy va kichik ko'chalarda jami 210 km, shundan 184 km piyodalar yo'lakchasi ta'mirdan chiqarildi;

2. Ko'chalar chetidagi 474,1 km ariq va lotoklar tozalandi va ta'mirlandi;

3. Shahar ko'chalaridagi yaroqsiz holga kelgan 6864 dona yoritgich almashtirildi, 485 km lik sim tartibga keltirildi, 208 dona elektr shkaflari profilaktika qilindi, 180 dona qo'shimcha yoritish chiroqlari o'rnatildi;

4. 460 ta shaxsiy turar-joylar, 126 ta ko'p qavatli uy-joylar va 156 ta ma'muriy va maishiy binolarning fasadi ta'mirlandi va bo'yaldi;

5. 615,2 ming dona manzarali, 479 ming dona mevali daraxtlar va 956 ming dona gul ko'chatlari ekildi;

6. Shaharlardagi 244 ta chiqindixona tartibga keltirildi. Har haftada ikki marta maxsus avtomashinalar bilan chiqindi tashish yo'lga qo'yildi.

7. Qarshi shahar va tumanlardagi 138 ta ko'p qavatli uylarni mukammal, 177 ta ko'p qavatli uylarni joriy ta'mirlash, issiq suv quvurlarini ta'mirlash, markaziy qozonxonadan uzoqda joylashgan iste'molchilarga 26 ta lokal qozonxonalar va 232 ta maishiy qozonlar o'rnatildi[27].

Qarshi shahri ariqlariga suv keltirishga mas'ul bo'lgan "Eskianhorkanalqurilishi" ochiq aksiyadorlik jamiyatining o'zi ag'dargich mashinasi bo'lmaganligi sababli boshqa tashkilotlardan qimmat narxda mashina yollab ishlatishga majbur edi. Bu esa, xizmat narxining ko'tarilishiga olib kelar edi. Shuni inobatga olib, 2007-yil 16-aprelda jamiyat hisobiga "Konchi" MChJ balansidagi Belaz-

75485 rusumli o'zi ag'dargich avtomashinasini sotib olishga qaror qilindi[28].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mustaqillik yillarida O'zbekiston janubiy viloyatlari — Surxondaryo va Qashqadaryo shaharlarida qurilish va obodonlashtirish ishlari bosqichma-bosqich rivojlanib borgan. Dastlabki davrda iqtisodiy qiyinchiliklar va infratuzilmaning eskirgan holati ayrim muammolarni keltirib chiqargan

bo'lsa-da, keyingi yillarda davlat siyosati va mahalliy hokimliklar tashabbusi asosida shaharsozlik jarayonlari jadallashdi.

Ayniqsa, yirik yubiley tadbirlari va davlat dasturlari doirasida amalga oshirilgan qurilish ishlari shaharlarning zamonaviy qiyofasini shakllantirishda muhim rol o'ynadi. Yangi istirohat bog'lari, sport inshootlari, savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari hamda transport va kommunal infratuzilmaning rivojlanishi aholi turmush sharoitini yaxshilashga xizmat qildi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro'yxat, 209-ish, 40-varaq.
2. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 1-ro'yxat, 56-ish, 50-varaq.
3. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro'yxat, 209-ish, 39-varaq.
4. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 1-ro'yxat, 65-ish, 21-26 varaqlar.
5. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 3-ro'yxat, 20-ish, 140-141 varaqlar.
6. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 4-ro'yxat, X-28-ish, 72-varaq.
7. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro'yxat, 275-ish, 123-125 varaqlar.
8. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 8-ro'yxat, 36-ish, 214-varaq.
9. "Халқ сўзи" газетаси, 1998 йил, 14 январь, №9 (1790). –Б. 1.
10. "Ўзбекистон овози" газетаси, 1998 йил 18 август, №97 (22.334). –Б. 1.
11. "Ўзбекистон овози" газетаси, 1998 йил 20 август, №98 (22.335). –Б. 3.
12. "Халқ сўзи" газетаси, 1999 йил, 18 июнь, №120 (2158). –Б. 1.
13. "Халқ сўзи" газетаси, 1999 йил 29 декабрь, №257 (2295).
14. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 1190-fond, 1-ro'yxat, 55-ish, 98-100-varaqlar.
15. "Халқ сўзи" газетаси, 2000 йил, 29 июль, №146 (2443).
16. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro'yxat, 1080-ish, 39-varaq.
17. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro'yxat, 1080-ish, 49-50 varaqlar.
18. "Халқ сўзи" газетаси, 2002 йил, 22 февраль, №39 (2867).
19. https://nrm.uz/contentf?doc=22768_o'zbekiston_respublikasi_vazirlar_mahkamasining_29_03_2002_y_102-son_shahrisabz_shahrining_2700_yilligini_nishonlashga_tayergarlik_ko'rish_to'g'risidagi_qarori
20. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, 656-fond, 1-ro'yxat, 14-ish, 11-varaq.
21. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 27-ro'yxat, 110-ish, 139-140-varaqlar.
22. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 27-ro'yxat, 34-ish, 103-115-varaqlar.
23. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 27-ro'yxat, 47-ish, 59-63-varaqlar.
24. Каримов И. Жамиятимизни эркинлаштириш, ислохотларни чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг ҳаёт даражасини ошириш – барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. Асарлар тўплами. 15-жилд. –Тошкент: Ўзбекистон, 2007. –Б. 80.
25. "O'zbekiston ovozi" gazetasi, 2006 yil 28 oktyabr, №128 (27.619). – Б. 1.
26. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 27-ro'yxat, 46-ish, 122-125 varaqlar.
27. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, 829-fond, 27-ro'yxat, 108-ish, 10-16 varaqlar.
28. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, 618-fond, 1-ro'yxat, 45-ish, 51-varaq.